
TOSHLOQ TUMANIDA MUKAMMAL TA'MIRLASH ISHLARI OLIB BORILMOQDA.

Toshloq tumanidagi mahallalarda elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash hamda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish maqsadida, joriy va mukammal ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

Tuman elektr ta'minoti korxonasi xodimlari tomonidan reja-dasturga asosan "Bo'ston", "Toshloq", "Sadda" mahalla fuqarolar yig'inida elektr tarmoqlarini mukammal ta'mirlash ishlari bajarilmoqda. Ushbu mahalla fuqarolar yig'inlarida joylashgan 432-, 754-transformator punktlari va undan chiquvchi 0.4 kV elektr uzatish tarmoqlari mukammal ta'mirdan chiqarildi.

Mutaxassislar tomonidan elektr uzatish tarmoqlari yuklamasini fazalar aro teng taqsimlash, daraxt shohlaridan tozalash, tayanchlarni tik va soz holatga keltirish hamda nosoz elektr qurilmalarini yangilash, sozlash ishlari olib borildi.

2024-05-06 13:47:05